



Phraseologisms as an element of construction

Malik KUCHIYEV¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2023

Received in revised form

10 August 2023

Accepted 25 September 2023

Available online

15 November 2023

Keywords:

application construction,
phraseological units,
function,
stylistic function,
periphrasis,
repetition,
means of artistic
representation, complex
syntactic integrity,
additional meaning.

ABSTRACT

This article analyzes the issues of considering the age factor in learning foreign languages. In the article, the issues related to assessing the learner's age, psychophysiological condition, gender, and character, especially the hierarchical level, as a factor influencing the learning process, are also studied.

2181-3701/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss5-pp93-101>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Frazeologizmlar ilova konstruksiyalarning elementi sifatida

Kalit so'zlar:

ilova konstruksiya,
frazologik birliklar,
funksiya,
stilistik funksiya,
perifraz,
takror,
badiiy tasvir vositalari,
murakkab sintaktik
butunlik,
qo'shimcha ma'no.

ANNOTATSIYA

Maqolada ilovalı elementlarning tabiatga xos bo'lgan xususiyatlardan biri, ya'ni uning tarkibida frazeologizmlarning qo'llanilish muammosiga to'xtalib, frazeologizmlarning ilovalı elementlar tarkibida bajarib keladigan funksiyalari tadqiqi nemis tili badiiy adabiyotidan olingan misollar vositasida tahlil qilingan.

¹ Teacher, Department of Second Foreign Languages, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: kuchievmalik@gmail.com

Фразеологизмы как элемент конструкций

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

прикладная конструкция,
фразеологизмы,
функция,
стилистическая функция,
перифраз,
повтор,
средства художественного
изображения,
сложная синтаксическая
целостность,
дополнительное значение.

В статье отмечена одна из природоподобных особенностей прилагательных элементов, то есть проблема применения в ней фразеологизмов, а функции, выполняемые фразеологизмом в составе прилагательных элементов, были проанализированы на основе примеров, полученных из художественной литературы немецкого языка.

Kirish

Ilova hodisasi sohasidagi tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ilova konstruksiyalar murakkablashish xususiyatiga ham ega bo'lishi mumkin. Bunday murakkablashish jarayonida ilova konstruksiya tarkibida asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementlarning soni bittadan ortiq bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, ikki yoki undan ortiq ilovali elementlardan tashkil topgan sintaktik konstruksiyaga murakkab strukturali ilova konstruksiya deb ataladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bunday konstruksiyalarni strukturaviy guruhlariga ajratish ilovadagi asosiy gap(ifoda)ning strukturasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. "Sodda strukturali ilova konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlarning soni asosiy ifodada ham, ilova qismida ham bir xil bo'lishi lozim, ya'ni bittadan gap yoki sintagmalardan oshmasligi talab qilinadi; murakkab strukturali ilova konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlar esa, ham asosiy ifoda tarkibida, ham ilova qismida ikkitadan kam bo'lmasligi lozim" [10; 108].

Demak, murakkab strukturali konstruksiyalarni tashkil etuvchi asosiy ifodaning soni bilan ilovali elementlarning miqdori baravariga oshishi kerak, ya'ni ikkitadan kam bo'lmasligi lozim. Shu o'rinda aytish mumkinki, ilova konstruksiyalarni strukturaviy guruhlariga ilovada ularning lingvistik mohiyatiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ilova hodisasi, ilova konstruksiya yoki ilova munosabatlar ham ilovali elementlarning aytilgan fikrlarga qo'shimcha ma'no, mazmun berishga qaratilgan lingvistik mohiyatidan kelib chiqadi. Ko'rinadiki, bunday ilovali elementlarning miqdori bittadan ortiq bo'lgan ilova konstruksiyalarni murakkab strukturali ilova konstruksiyalar deb atash lozim. Bunday konstruksiyalarda ilovali element sifatida frazeologizmlar qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalarga quyidagi misolni keltirish mumkin:

Mit dem ganzen Karrierestreß war bei mir schon vor Jahren Feierabend. Das ist ein Stück meiner Geschichte, dazu stehe ich, und damit Feierabend! [Kraushaar, Lippen. S.172].

Ushbu misolda asosiy ifoda (Mit dem ganzen Karrierestreß war bei mir schon vor Jahren Feierabend) ga uchta ilovali element)1.Das ist ein Stück meiner Geschichte. 2. dazu stehe ich. 3. und damit Feierabend!) birikib, asosiy ifodani to'ldirib, aniqlashtirib keladi. Natijada murakkab strukturali ilova konstruksiya hosil bo'ladi. Bu yerda yozuvchi tasvirlayotgan voqeaga alohida urg'u berib, uning ta'sirchanligini oshirish maqsadida o'ziga xos sintaktik-stilistik hodisa-ilova konstruksiyasiga murojaat qiladi. Ushbu ilova

konstruksiya yozuvchining individual uslubi mahsuli sifatida yuzaga keladi, bunda alohida ta'kidlash namoyon bo'ladi.

Ta'kidlash kerakki, ilova konstruksiya tarkibida asosiy gap (ifoda)ga qo'shimcha sifatida birikib kelayotgan ilovali elementlarning miqdor jihatdan ortib borishi quyidagi vazifalarni bajarib keladi:

1. Ilova konstruksiyada ifodalangan voqea-hodisalarni ma'lum darajada soddalashtiradi;

2. Unda aks ettirilgan voqea-hodisalar mazmunining kitobxon tomonidan tushuntirilishini osonlashtiradi;

3. Unda tasvirlangan voqea-hodisalarning ta'sirchanligini oshiradi.

4. Ushbu vositalar asosiy ifodaning mazmunini to'ldirib, aniqlashtirib keladi.

Aytish lozimki, murakkab strukturali ilova konstruksiya komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqalar ham turli xil ko'rinishlarga ega; ko'p hollarda bir-biri bilan munosabatga kirisha oladigan so'zlar yordamida; ilova konstruksiya tarkibida biron-bir leksik birlikning takrorlanishi bilan; ayrim bog'lovchilarning qo'llanishi orqali; asosiy ifoda vazifasida keladigan bosh bo'laklarning sintaktik-semantik yaxlitligi bilan ifodalanadi.

Ohang (intonatsiya) asosiy ifoda (gap) va qo'shimcha (ilovali) element o'rtasidagi ilova aloqaning paydo bo'lishida asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ilova konstruksiyalarning ohang xususiyatlarini o'rganishga ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari bag'ishlangan. S.E.Kryuchkov ushbu o'ziga xos xususiyatlar haqida fikr bildirib, quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "ilovali element oldidan tovushning pasayishi va alohida temp bilan talaffuz qilinadigan nisbatan kattaroq pauza kelishi"ni alohida ta'kidlaydi [7; 325].

Bu sohada shunday fikrlarni A.B.Shapiro [15] ham bildiradi, rus xalq lahjalari statistikasi materiallariga asoslanib, u quyidagilarni aytib o'tadi: "Ohang ritmi yana shu narsani ko'rsatadiki, so'zlovchi oldindan birinchi, hamda ikkinchi ifodani aytish niyatida bo'lganmi" yoki unda ikkinchi ifodani aytish fikri birinchi ifodani tugatgandan so'ng paydo bo'lganmi (birinchi gap oxirida ovoznining to'liq pasayishiga asoslangan katta pauza). Birinchi holatda gaplarning bog'lanishi haqida, ikkinchisida esa oldingi gapga keyingisining ilova qilinishi haqida gapirish mumkin.

Bunday fikr-mulohazalar olimlarning ilova konstruksiyaning ohang xarakteri haqidagi qarashlarining mushtarakligi ilova elementining o'ziga xosligi so'zlovchi ongida kutilmaganda paydo bo'lishi haqidagi tezisni tasdiqlaydi. Shu bilan birga S.E.Kryuchkov va A.B.Shapirolar shuni tasdiqlaydiki, ilovali elementning o'ziga xosligi nafaqat so'zlovchining ongida uning kutilmaganda paydo bo'lishi emas, balki boshqa omillar bilan ham aniqlanadi [15; 24]. Bunga o'xshash fikr mulohazalar bir qator ilmiy tadqiqotlarda ham bildiriladi.

Ilova konstruksiya (Murakkab sintaktik butunlik) komponentlari o'rtasida ilova aloqaning paydo bo'lishining asosiy mezonlarini ajratib ko'rsatib, A.B.Velichuk shunday yozadi: "Ilovali elementning o'ziga xos xususiyati uning so'zlovchi ongida paydo bo'lishi vaqti bilan belgilanmaydi, balki uning sub'yektiv boshqarganligi, lirik mavzusining mustaqilligi va boshqacha rejalashtirilganligi bilan aniqlanadi". Ushbu fikr mulohazalarni davom ettirib, mualliflar quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "Ilovali elementning pauzasidan keyin ovozning pasayishi keladi, agar ilovali element mustaqil gap ko'rinishida bo'lsa, ilovali element oldingi gapga qo'shimcha sifatida alohida keladi. Bunday holatda ilova qilinayotgan gapda ovozning to'liq pasayishi sodir bo'ladi". Masalan: taqqoslang:

Die beiden Polizisten hefteten sich an die Fersen des Ganoven. Ich heftete mich dem Paar an die Fersen..., ich war ihnen eher willkommen als lästig [Seghers, Transit. S.131].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ilova aloqalarining oldindan o'ylanmaganlik, kutilmaganlik belgilari bo'yicha aniqlanishi ma'lum e'tirozlarni tug'dirishi mumkin, chunki ilova aloqalarining kutilmaganda paydo bo'lishi ma'lum darajada so'zlashuv nutqiga xosdir. Shu o'rinda Yu.V.Vannikovning fikr-mulohazalari diqqatga sazovor bo'lib, u shunday yozadi: "So'zlovchining elementar nutqiy tajribasi va qo'shimcha oldindan o'ylanmagan elementar ifodalanayotgan gap bilan teng aloqa hamda tobe aloqa orqali bog'lanib kelishi mumkin" [2; 157].

Darhaqiqat, turli xil ilova konstruksiyalarining qo'llanishi so'zlovchining ongli ravishda amalga oshiradigan maqsadlari bilan bog'liq, u tomonidan nutqqa qo'shimcha element kiritilishi mumkin, mazkur element oldingi ifodani kuchaytirishga yoki butun kontekstdan ma'lum qismni ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi, shu bilan birga unga murakkab sintaktik butunlik doirasida alohida mazmun beriladi. Ta'kidlash lozimki, ilova aloqalarini bunday tuzilishi juda keng tarqalgan. Olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ilova aloqalari yozma nutqda ham- badiiy matnda va ilmiy uslubda, shuningdek, texnik adabiyotlarda va publitsistikada ham uchraydi, hamda ma'lum ma'no funksiyalarini bajarib keladi.

Shu jihatdan, ilova konstruksiyalarini o'rganishda ularning ikki tomonlama tabiatga ega ekanligini e'tiborga olish lozim: og'zaki nutq jarayonida hosil bo'ladigan iloval elementlar va yozma nutqda qo'llanadigan iloval elementlar. Bu alohida e'tiborni talab qiladi, chunki, yozma nutqda iloval elementlar kutilmaganda, favqulodda paydo bo'lmasdan, balki aniq stilistik maqsadlar asosida yuzaga keladi. Yozuvchilar tasvirlanayotgan voqea hodisalarning ta'sirchanligini ekspressiv mohiyatini kuchaytirish maqsadida ana shunday stilistik vositalardan foydalanadilar.

Murakkab sintaktik butunlik munosabatlarining semantik omillar asosida aniqlanishi iloval element va asosiy ifoda o'rtasidagi ma'no va struktura jihatdan mustaqillikka borib taqaladi. Asosiy ifodaning birinchi qismidan iloval elementlarning mazmunan ajratilishi har qanday ilova konstruksiyada ularning postpozitsiyada kelishi uchun zamin yaratadi. Mantiqan va ohangiga ko'ra ajratib ko'rsatilishi tufayli iloval element katta sintaktik salohiyatga va stilistik ta'sirchanlikka ega bo'ladi.

Ilova konstruksiyalarning strukturasi haqida gapirilganda, iloval elementning o'z asosiy ifodasiga grammatik jihatdan tobe bo'lishini ta'kidlash lozim. Eng avvalo, bu iloval element iloval butunlikning asosiy qismidan to'liq ajratilishi mumkin emasligida namoyon bo'ladi. Y.V.Vannikovning fikricha, ilova konstruksiyaning mantiqiy o'ziga xosligi shu narsada ko'zga tashlanadiki, ilova aloqalarida mavjud bo'lgan gaplarda ikki xil fikrlash ifoda etiladi, ularning ikkinchisi "qo'shimcha tavsif"ga ega bo'ladi. Iloval elementning qo'shimchalik xususiyati (belgisi) sintaktik ilova konstruksiyaga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlarda o'zining tasdig'ini topgan [2; 180].

Bu yerda shuni aytish lozimki, qo'shimcha natijasida paydo bo'lgan iloval elementning funksiyasi uning butun asosiy ma'nosini qamrab ololmaydi. Iloval element nafaqat qo'shimcha qilish xususiyatiga ega, u asosiy ifoda mazmunini aniqlashtirish, tushuntirish va rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mazkur aytib o'tilgan barcha xususiyatlar ilova konstruksiyalarni o'ziga xos sintaktik-stilistik hodisa deb hisoblash imkonini beradi, ularning qo'llanilishi esa nutqqa o'ziga xos ma'no va ekspressiv-stilistik nozikliklarni berishni va ifodaning ayrim komponentlariga katta mazmun hamda emotsional baho berishni taqozo etadi [13; 244].

Ilova konstruksiya (murakkab sintaktik butunlik) komponentlari o'rtasidagi ilova aloqalarning paydo bo'lishini aniqlashda bog'lovchilar tahlili yoki gap strukturasi tahlili

birinchi o'ringa qo'yiladi. Ilovali element va asosiy ifoda o'rtasidagi ilova aloqalarining mavjudligini aniqlashga bunday yondashuv turli tillar sintaksisi bo'yicha olib borilgan dastlabki tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

Muhokama va natijalar. Ilmiy tadqiqot ishlarining xulosalaridan ko'rinadiki, ilova konstruksiyasi sintaktik aloqaning faqat o'ziga xos turi sifatida qaralmaydi, balki gipotaksis va parataksis o'rtasidagi farqni neytrallashtirish shakli sifatida ham namoyon bo'ladi. Masalan, V.M.Milk ta'kidlashicha, vor, tough kabi bog'lovchilarda bog'lanish va ergashish o'rtasidagi appozitsiya neytrallasadi, ular murakkab sintaktik butunlik doirasiga mustaqil gaplarni kiritish imkoniyatiga ega. Teng bog'lovchilar ergashtiruvchi bog'lovchilar rolini bajarib kelish hollari ham kuzatiladi [9; 15]. N.A.Kobrinaning ko'rsatib o'tishicha, teng bog'lovchilar o'rniga ergashtiruvchi bog'lovchilar through, whereas, because, so that kabilar kelishi mumkin. Aksincha, ergashtiruvchi bog'lovchilar o'rniga damit, denn singari teng bog'lovchilar qo'llanilishi mumkin [6; 23].

Ilova konstruksiyalarda teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar ma'nolarini anglab yetishga turli tillar materiallari asosida ilova konstruksiyalarni tadqiq qilgan ko'plab tilshunolar o'z e'tiborlarini qaratganlar: rus tilida и, но, да bog'lovchilari (L.M.Loseva) [8], fransuz tilida mais, etc, or, ouox, sar, parsque, si bog'lovchilari (I.A.Vintman) [4], ingliz tilida and, but, if, whele bog'lovchilari (G.M.Timoshenkova) [12], nemis tilida und, aber bog'lovchilari (M.Ya.Vays) [1].

Ta'kidlash kerakki, ko'p hollarda to'ldiruvchi vazifasidagi iloval element nisbatan ko'proq uchrasa-da, ma'lum bog'lovchilar bilan birga kelishini ko'rish mumkin. Natijada o'zining ko'rinishlari va xususiyatlari bilan aytilayotgan fikr iloval elementdan boshqacharoq ega orqali ifodalanadigan iloval elementning alohida struktural ko'rinishini hosil qiladi. Masalan:

Bei dem jüngsten Skandal hatte der Minister keine gute Figur gemacht. Sie hatten an diese Abend schlechte Figur gemacht, das war nicht zu übersehen [Musil, Mann. S.405].

Ilova konstruksiya tarkibida iloval elementlar bajarib kelayotgan vazifalari bilan bir-birlariga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zlarida takrorlabgina qolmasdan, balki yangi xususiyatlar bilan bir-birlarini boyitib, kengaytirib boradi. Bu holni parallel birikishga moslangan ushbu iloval elementlar tahlilida ham kuzatish mumkin. Chunki, bu iloval elementlar quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega: birinchidan, iloval elementning yetakchi komponenti, ya'ni iloval elementning o'zi takrorlanish jarayoni bilan hosil bo'ladi va so'ng unga tobe bo'lgan qismlar bilan kengaytiriladi; u yoki bu gap bo'lagining takrorlanib kelishi bu uslubiy hodisadir. Vaholanki, yozuvchi kitobxonning diqqat e'tiborini tasvirlayotgan voqea-hodisaga yana bir bor qaratish maqsadida uni takrorlaydi, takrorlanuvchi komponent doimo mantiqiy urg'u oladi, natijada uning ta'sirchanligi, voqeligi oshadi [11; 18].

Shunday qilib, bunday ko'rinishda shakllanish xususiyatiga ega bo'lgan iloval elementlarning stilistik funksiyalari nihoyatda salmoqli bo'ladi; ikkinchidan, iloval element tarkibida inversiya hodisasini kuzatamiz, chunki takrorlanuvchi komponentlar oddiygina takrorlanib qolmasdan, balki o'zgaradi, demak, bu yerda qandaydir sinonimik holat namoyon bo'ladi; uchinchidan, iloval elementning strukturaviy shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan holat, ya'ni biz bu yerda til elementlarini tejash usuliga duch kelamiz. Natijada, iloval elementlar yetakchi gap tarkibida tushirilib qoldirilgan komponentni to'ldirish, tiklash maqsadida namoyon bo'libgina qolmasdan, ularning o'zi ham shu asosiy ifoda tarkibida keluvchi komponentlar yordamida tiklanishi mumkin degan xulosaga ega bo'lamiz.

Bu yerda o'zaro bog'liqlik ilova konstruksiya komponentlariga xos bo'lgan yana bir muhim xususiyatni, ya'ni asosiy ifoda bilan ilovali elementlar o'rtasidagi sintaktik-semantik bog'liqlikni yana isbotlaydi. Ilovali elementlar oldida keluvchi biriktiruvchi bog'lovchilar bunday vazifalarni bajarmaydi. Bu ilova komponentlar orasidagi sintaktik aloqalar ularsiz ham ifodalanib kelishi mumkin. Lekin shunga qaramasdan ilovali elementlarga xos bo'lgan xususiyatlarni alohida ta'kidlash o'rinli deb hisoblaymiz, chunki biriktiruvchi bog'lovchilarga ega bo'lgan bunday ilovali elementlar shu turdagi ilovali elementlarning alohida olingan strukturaviy guruhlarini tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu strukturaviy guruh alohida ta'kidlanishi lozim.

Ayrim bir hollarda murakkab strukturaviy ilova konstruksiyalarni tashkil etishda bir xil sintaktik xarakterga ega bo'lgan predloglar ishtirok etishi mumkin:

Im Wahlkampf war der Kanzler zu großer Form aufgelaufen. Sie werden sehen: Er läuft schnell wieder zu großer Form auf [Hörzu 7, S.1973]

Yuqoridagi tartibda hosil bo'luvchi ilovali elementlar doimo polifunksional xarakterga ega bo'ladi, chunki birinchi ilovali element bunday hollarda ikki xil vazifada keladi: asosiy ifoda uchun ilovali element vazifasida, ikkinchi ilovali element uchun asosiy ifoda vazifasida. Murakkab ilova konstruksiya tarkibida asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementlarning soni ikkitadan ham ortiq bo'lishi mumkin. Bunday murakkab strukturaga ega bo'lgan ilovali elementlarni quyidagi tahlil qilinayotgan misollar tarkibida kuzatib borish mumkin:

Die Ratifizierung ist außer Frage. Natürlich, die Schwächen meines Charakters stehen doch außer Frage [Th. Mann, Zauberberg. S.731].

Keltirilgan ilovali elementlarning tahliliga tayanib, ularga xos bo'lgan yana bir sintaktik xususiyatni alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq, u ham bo'lsa ilova konstruksiya tarkibida keluvchi asosiy ifoda bilan ilovali elementlarning strukturaviy shakllanishidir. Boshqacha qilib aytganda, asosiy ifodaning strukturaviy shakllanishi hamma vaqt ham ilovali elementlarning strukturaviy shakllanishiga mos kelavermaydi. Bu xulosaning isboti sifatida T.M.Timoshenkovaning ingliz tili materiallari asosida olib borgan izlanishidan quyidagi mulohazani keltiramiz: "Asosiy ifoda ham, ilovali element ham kommunikativ nuqtai nazardan bir xil strukturaviy shaklga ega bo'lmaydi, shu sababli ilova konstruksiya na bog'langan qo'shma gapga va na ergashgan qo'shma gapga o'xshaydi, ular o'zgacha struktura kashf etadi" [12; 98].

Darhaqiqat, agarda biz bu yerda tahlil qilingan va tahlil qilinishi lozim bo'lgan ilova konstruksiyalarning strukturaviy shakllanishini bir-biriga qiyos qilib o'rgansak, yuqoridagi mulohazaning to'g'riligiga to'lig'icha ishonamiz, chunki ilova konstruksiyalar har-xil strukturaviy shakllanishga ega. Bunday shakllanishda yo asosiy ifoda, yo ilovali element ma'lum murakkablashgan shaklga ega bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan misoldagi asosiy ifodaning strukturaviy shakllanishi boshqa misollardagi ilovali elementlarning strukturaviy shakllanishidan keskin farq qiladi.

Shunday qilib, ilova konstruksiya tarkibida asosiy ifoda ilovali elementlarga nisbatan qanday strukturaviy shakllanishga ega bo'lmasin, bu ilova konstruksiya ham strukturaviy va ham ma'noviy tomondan ana shu ilovali element yordamida yakunlanadi, demak ilovali element har qanday strukturaviy shakllanishda yakunlovchi, tugallovchi komponent sifatida yuzaga keladi.

Agar biz transformatsion uslubdan foydalanib, yuqorida keltirilgan misoldagi bu ikkala ilovali elementni asosiy ifoda vazifasida keluvchi gap tarkibida joylashtirsak, u holda bitta ergash gap hosil bo'ladi. Biroq, yozuvchi shu ergash gap tarkibidagi ayrim

komponentlarning muhimroq ekanligini ko'rsatish, ularni alohida ta'kidlash maqsadida ana shu ilovali elementlarga murojaat qiladi va ularni ilovali element funksiyasida qo'llaydi. Natijada, bu ilovali elementlar kitobxonning ham diqqat e'tiborini o'ziga jalb qiladi, chunki sintaktik jihatdan ilovali elementlar yolg'iz kelishi mumkin emas, lekin kelganda ham nimagadir bevosita bog'liq bo'lishi shart. Bu bog'liqlik ikki tomonlama sodir bo'lmoqda, ya'ni strukturaviy va ma'noviy. Strukturaviy bog'liqlik ilovali elementning asosiy ifodadan keyin turishi, ya'ni ikkinchi darajada turishini ta'kidlasa, ma'noviy bog'liqlik esa ilovali elementlarning asosiy ifodasiz mavjud bo'la olmasligini ta'kidlaydi, sabab oldingi gap tarkibida tushirilib qoldirilgan fikr ilovali elementlar yordamida tiklanadi, to'ldiriladi, aniqlashtiriladi.

Shunday qilib, asosiy ifoda bilan ilovali elementning bunday ikki tomonlama bog'liqligi har qanday ilova konstruksiya sintaktik yaxlitligini kashf etadi, natijada bunday ilova konstruksiyalar murakkab sintaktik butunlik ramkasida talqin qilinadi. Bu holat ilova konstruksiya - bu murakkab sintaktik butunlik, yoki aksincha murakkab sintaktik butunlik - bu ilova konstruksiya, degan tushunchani taqozo etadi. Shu sababli biz ish jarayonida bu ikkala terminologik tushunchalardan parallel ravishda foydalanishni doimo ijobiy deb qaraymiz.

Aytish lozimki, ilovali elementlarga xos bo'lgan bunday xususiyatlar, ilovali elementlar soni beshtadan iborat bo'lgan ilova konstruksiya tarkibida ham takrorlanib kelishi mumkin.

Hier, wenn Sie noch etwas trinken möchten, bedienen Sie sich.- Vielen Dank, ich bin so frei! Ich bin so frei, ich nehm' mir noch eine Zigarette [Fallada, Mann. S. 236].

Ushbu misolda ilova konstruksiya tarkibidagi asosiy ifodaga beshta ilovali element birikib kelgan. Ilovali elementlarga xos bo'lgan bunday birikish yuqorida aytilgan bu turidagi fikr va mulohazalarimizni yana bir bor isbotlamogda. Chunki, ilovali elementlar bilan asosiy ifoda o'rtasida ham parallel va ham ketma-ketlik mavjud. Boshqacha qilib aytganda, ilovali elementlar o'zlari bevosita bog'liq bo'lgan asosiy ifodaga parallel va ketma-ket birikib kelishadi. Bunday birikish ilovali elementlarga xos bo'lgan vazifalarni yanada kengaytiradi, to'ldiradi va boyitadi.

Shunday qilib, ilovali elementlar o'zlari bevosita shakllanib kelayotgan ilova konstruksiyalarda xilma-xil vazifalarni bajarib keladi. Bu vazifalarning ba'zi birlarini shu oxirgi misol tahlilida ham takrorlash mumkin: birinchidan, ilovali elementlar ilova konstruksiyaning faqatgina sodda strukturaviy shaklini hosil qilmasdan, balki ularning murakkab strukturaviy shakllarini uch xil bo'lishida ham ishtirok etadi; ikkinchidan, ilovali elementlar polirematik va polifunksionallik xarakteriga ega; jumladan, joylashish o'rni jihatidan uchinchi o'rinda keluvchi ilovali element, joylashishi jihatdan ikkinchi o'rinda turuvchi ilovali element orqaligina asosiy ifodaga birikib kelishi mumkin; chunki bu ilovali elementning mazmuni bilan uzviy bog'liq, ya'ni uning davomchisi sifatida yuzaga keladi. Xuddi shunday holni qolgan ilovali elementlar tarkibida ham kuzatish mumkin.

Murakkab strukturaviy shaklga ega bo'lgan bunday ilova konstruksiya komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqa vositalari ham, asosan kontaktli so'z vazifasida keluvchi leksik birlik yordamida tiklanadi. Shuning uchun ham, ilova konstruksiyasini o'rganishga bag'ishlangan juda ko'plab ilmiy-tadqiqot izlanishlarida ilovali elementlar tomonidan asosiy ifoda mazmuniga bildirilayotgan "qo'shimcha" ma'no nihoyatda salmoqli, ta'sirchan, muhim ekanligi alohida qayd qilinadi [5; 16].

Demak, ilova konstruksiyalari o'ziga xos sintaktik hodisa bo'lib, ular qo'shimcha sifatida paydo bo'lgan ifoda funksiyasini bajarib keladi, ular strukturasiga ko'ra ilovali

element deb ataladi. Ana shu ilovali element asosiy ifoda (asosiy gap) ma'nosini aniqlashtirib, rivojlantirib keladi, ma'lum darajada izohlab beradi. Bunday sintaktik strukturalar odatda ikki qismdan iborat bo'ladi, birinchi qism asosiy axborotni, ikkinchisi esa qo'shimcha xabarni ifodalab keladi. Ular nutqda ilova birliklarning funksional qo'llanilishini ta'minlaydi, ularning yordamida so'zlovchining ongida va uning nutqida asosiy ifodadan keyin, asosiy fikr bildirilgandan so'ng yuzaga keladigan qo'shimcha ma'no beradigan ifoda keltiriladi.

Ayrim germanist olimlar murakkab sintaktik butunlikning strukturasiga ko'ra turlarini aniqlashda nafaqat sintaktik belgilarga, balki stilistik belgilarga ham asosiy e'tiborni qaratadilar. Shunday olimlar qatoriga B.T.Tursunovni ham kiritish mumkin. U nemis tili materiallari asosida ilova konstruksiyasini sintaktik aloqaning o'ziga xos turi sifatida tadqiq qilib, murakkab sintaktik butunlikning struktur turlarini aniqlashda sintaktik belgilar bilan birga stilistik belgilarni ham hisobga olish kerakligini ta'kidlaydilar [14;34]. B.T.Tursunov ilovali elementlarning quyidagi struktur turlarini ajratib ko'rsatadi:

- 1) bog'lovchili ilovali elementlar;
- 2) bog'lovchisiz ilovali elementlar;
- 3) leksik takrorga asoslangan ilovali elementlar;
- 4) ma'lum masofada joylashgan ilovali elementlar;
- 5) javob replikasi sifatida qo'llanadigan ilovali elementlar;
- 6) murakkab strukturali ilovali elementlar.

Ta'kidlash lozimki, bog'lovchili va bog'lovchisiz hamda boshqa strukturali konstruksiyalar har qanday murakkab sintaktik butunlikning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi, ularni murakkab sintaktik butunlikning ko'rinishlari qatoriga kiritish mumkin. Shuni alohida eslatib o'tishimiz mumkinki, bunday ilova konstruksiyalar alohida gap bo'lagi sifatida kelmasdan, balki fikr yoki jumlani mazmunan tugal bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Вайс М.Я. Присоединительные конструкции диалогической речи и их стилистическое использование в современном немецком языке. Учёные записки Ленинград гос. пед. ин-та. Им. А.И.Герцена, Т-318. 1967. –С.139-144.
2. Ванников Ю.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. – М., 1979.– 296 с.
3. Величук А.П. О специфике присоединительной связи в современном русском языке (сочинение и присоединение). Автореф. дисс... канд.филол. наук. – М., 1961. – 16 с.
4. Винтман Ж.А. Классификация присоединительных конструкций, имеющих форму предложения на примере компонентов адвербиального типа. – Сб. Структура предложения и лексико-грамматические отношения. -1: Изд-во Ленинград. Гос. пед. ин-та. 1972. – С. 156-176.
5. Кобзев П.В. Небольные предложения присоединительного типа в современном русском литературном языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Л., 1966. – 21 с.
6. Кобрина А.А. Стилистические средства связи между самостоятельными предложениями в английском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Л., 1963, – 32 с.

7. Крючков С.Е. О присоединительных связях в современном русском языке // Вопросы синтаксиса современного русского языка. Уч.педгиз. –М., 1950 .– 400 с.
8. Лосева Л.М. К изучению межфразовой связи (Абзац и сложное синтаксическое целое) // Русский язык в школе, 1967, № 1. –С. 156-159
9. Мильк В.М. Интонация присоединения в современном английском языке в сравнении с русским. Автореф. дисс... канд. филол.наук. – М., 1960, -21 с.
10. Морару Ю.С. О некоторых типах присоединительных конструкций (на материале современного испанского языка). -Кн: Грамматические и лексические исследования по романским и германским языкам. –Кишинев, “Штиинца”, 1982. –С. 106-114.
11. Паламарчук Н.Т. Обособленные конструкции в романах Г. Манна: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 1976. – 20 с.
12. Тимошенкова Т.М. Присоединение как особый вид синтаксической связи. Вестник Харьковского гос.ун-та, №159 вып. 1977. – С. 96-100.
13. Турсунов Б.Т. Основные факторы выделения присоединительных связей. Зональное семинар - совещание преподавателей иностранных языков Средней Азии и Казахстана. Тезисы доклад. ч. II. Душанбе. 1988. –С. 244.
14. Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи. Автореф. дисс... д-ра. филол. наук. Санкт-Петербург, 1993 – 44 с.
15. Шапиро А.В. Простое предложение. Стенограмма координационного совещания. – Уфа. 1958. – 24 с.